

UMMON SULTONLIGINING DAVLAT BOSHQARUVI TUZILISHI EVOLYUTSIYASI, HOZIRGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI

Nasirova Nilufar Yuldashevna
Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti mustaqil izlanuvchisi
nilufarnasirova2017@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Ummon Sultonligining davlat boshqaruvi tuzilishi, uning tarixiy evolyutsiyasi, hozirgi holati va kelajakdagi istiqbollarini tadqiq qilishga bag'ishlangan. Maqolada Ummonning monarxik tizimi, hukumat strukturasi, ma'muriy-hududiy bo'linishi, ijtimoiy-siyosiy barqarorligi va iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, mamlakatning global siyosatdagi roli, diplomatik faoliyati va kelajakdagi islohotlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ummon Sultonligi, Sulton Qobus ibn Said, Sulton Haytham ibn Tariq, davlat boshqaruvi, monarxiya, siyosiy tizim, ma'muriy islohotlar, Fors ko'rfazi.

ЭВОЛЮЦИЯ, СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ СТРУКТУРЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ СУЛТАНАТА ОМАН

Насирова Нилуфар Юлдашевна
Исследователь Ташкентского
государственного университета востоковедения
nilufarnasirova2017@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена изучению структуры государственного управления в Султанате Оман, ее исторической эволюции, современному состоянию и перспективам на будущее. В статье анализируются монархический строй Омана, структура государственного управления, административно-территориальное деление, социально-политическая стабильность и роль в экономическом развитии. В нем также обсуждается роль страны в мировой политике, дипломатической деятельности и будущих реформах.

Ключевые слова: Султанат Оман, султан Кабус ибн Саид, султан Хайсам ибн Тарик, государственное управление, монархия, политическая система, административные реформы, Персидский залив.

EVOLUTION, CURRENT STATUS AND PROSPECTS OF THE GOVERNMENT STRUCTURE OF THE SULTANATE OF OMAN

Nasirova Nilufar Yuldashevna

Researcher Tashkent State University of Oriental Studies
nilufarnasirova2017@gmail.com

ABSTRACT

This article is devoted to the study of the structure of state governance of the Sultanate of Oman, its historical evolution, current state and future prospects. The article analyzes Oman's monarchical system, government structure, administrative-territorial division, socio-political stability and role in economic development. It also discusses the country's role in global politics, diplomatic activities and future reforms.

Keywords: Sultanate of Oman, Sultan Qaboos bin Said, Sultan Haitham bin Tariq, state governance, monarchy, political system, administrative reforms, Persian Gulf.

KIRISH

1970-yilda Buyuk Britaniyadan mustaqilligini e'lon qilgan Ummon xalqaro huquq tizimiga qo'shilmagan va shuning uchun ishlar islom qonunlari asosida hal qilingan. Biroq 1970-yildan boshlab mamlakat boshqaruvini o'z qo'liga olgan Sulton Qobus bilan huquq sohasida ba'zi qadamlar tashlandi. Biroq Sulton Qobus hokimiyat tepasiga kelgach, birinchi navbatda ta'lim va sog'liqni saqlash kabi sohalardagi islohotlarga e'tibor qaratdi va faqat 1990-yillarga kelib huquq sohasida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirdi. Lekin ahamiyati shunga ko'ra, mamlakat jinoyat qonuni 1974-yilda tartibga solingan va 2018-yilda ehtiyojlarni to'liq qondirish uchun etarli bo'limganda yangilangan. Sulton Qobus 1996-yilda mamlakat konstitutsiyasini e'lon qildi va keyingi davrda keng qamrovli huquqiy kodifikatsiyalarni amalga oshirdi.

Konstitutsiyada qonun chiqaruvchi hokimiyatning asosi islom huquqi ekanligi qayd etilgan bo'lsada, Ummon huquqi islom huquqi va anglo-sakson huquqining aralashmasidan iborat deyish mumkin. Oila huquqi asosan islom qonunlariga, jinoyat huquqiga asoslanadi, moddalar xalqaro huquq normalariga muvofiq tartibga solinadi.

2020-yilda davlat boshqaruvini qo‘lga olgan Sulton Heysem, lavozimga kirishganidan ko‘p o‘tmay, ba’zi o‘zgarishlar kiritib, yangi konstitutsiyani nashr etdi va ba’zi qonunlarni o‘zgartirdi. Mamlakatning siyosiy tuzilishi konstitutsiyaviy monarxiyaga asoslangan. Sulton daxlsizdir va uning buyruqlariga bo‘ysunish kerak va hurmat qilish majburiydir.

Ummon Sultonligi Arabiston yarim orolining janubi-sharqida joylashgan bo‘lib, maydoni 300,000 km² ni tashkil etadi. Mamlakat Saudiya Arabistoni, Yaman va Birlashgan Arab Amirliklari bilan chegaradosh.[1] Ummonning geografik joylashuvi Fors ko‘rfazi va Hind okeanidagi muhim transport yo‘llari chorrahasida bo‘lib, neft yetkazib berishda strategik ahamiyatga ega. Ummon Sultonligi – Mutlaq monariya boshqaruв shakliga ega bo‘lgan davlat hisoblanadi. Mamlakatning hozirgi siyosiy tizimi 1970-yilda hokimiyatga kelgan Sulton Qobus ibn Said davrida shakllangan va uning vafotidan keyin (2020) Sulton Haytham ibn Tariq tomonidan davom ettilmoqda[2]. Ummonning davlat boshqaruvi tuzilishi mutlaq monarxiya asosida ishlaydi, ammo so‘nggi yillarda ma’muriy islohotlar, shu jumladan mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish institutlarini kuchaytirish orqali mamlakat siyosiy boshqaruvi diversifikatsiya qilinmoqda. Maqolada tahlili amalga oshirilgan tadqiqot mavzusining maqsadi – Ummon Sultonligining davlat boshqaruvi mexanizmlari, uning tarixiy rivojlanishini, hozirgi holatini va kelajakdagи istiqbollarini ochib berishdan iboratdir.

ASOSIY QISM

Ma’lumki, Ummonning davlat boshqaruvi tizimi an’naviy monarxiya bilan modernizatsiya qilingan ma’muriy apparatning uyg‘unligiga erishgan universallikka ega. Tarixiy evolyutsion bosqichni o‘z boshidan o‘tkazgan Ummon Sultonligining hozirgi boshqaruvi tizimi XVIII asrda yuzaga kelgan Al Bu Said sulolasidagi shakllangan. 1970-yilda Sulton Qobus ibn Said hokimiyatga kelganidan keyin mamlakatda keng qamrovli islohotlar boshlandi, birinchidan, markaziy hokimiyatni mustahkamlash orqali mahalliy qabilaviy boshliqlarning ta’sirini pasaytirishga erishish. Ikkinchidan, ma’muriy-hududiy islohotlarni amalga oshirish orqali 11 muhofazaga (viloyatga) bo‘lib uning nazoratini markazga bo‘ysundirish. Uchinchidan, 1996-yilda Konstitutsiyaviy islohotlar natijasi orqali birinchi asosiy qonun qabul qilinishiga erishish, bu orqali siyosiy xilma-xillikka erishish.[3] Lekin mamlakatda siyosiy partiyalar taqiqlangan.

Shuni ham alohida qayd etish muhimki, Sulton Qobus hokimiyatga kelganida ta’kidlagan haqiqatlardan biri mamlakatning arab va musulmon xarakteri bo‘lib, bu haqiqatni ifodalar ekan, ibodiy tariqatiga alohida urg‘u bermagan. Ummon ma’muriyati har doim chetdan mafkuralarni olib kirish va isloh qilish o‘rniga mahalliy diniy bilim va mahalliychilikni saqlab qolishga harakat qilgan. Ibodiylik bu

yerlarda madaniy o‘ziga xoslikning ajralmas qismi bo‘lgan va shunday davom etmoqda.[8]

Biroq, Ummon hukumati ba’zi musulmon davlatlari kabi bir mazhabga qat’iy rioxalatni shunga mos ravishda boshqarish o‘rniga, ibodiylikni diniy an’ana va asos sifatida qabul qilinadigan diniy ishora sifatida ko‘rish, boshqa din va mazhablarga nisbatan bag‘rikenglik va teng masofada munosabatda bo‘lish tamoyilini o’zlashtirdi.[7] Aslida, Ummonni arab dunyosidagi eng dindor davlat deb ta’riflash mumkin. Bu holatning shakllanishida Sulton Qobusning “Yasha va yashasin” yondashuvi katta rol o‘ynaydi. Ummonda nasroniyalar va hindlar sulton tomonidan vaqf qilingan yerlarda qurilgan ibodatxonalarda erkin ibodat qilishlari mumkin. Hukumat tuzilmasi, ikki palatali parlament va sud tizimida ibodiyalar bilan bir qatorda sunniylar va shialar ham mavjud. Sulton Qobus mutaassiblikni yoqtirmaydigan shaxs bo‘lgani uchun diniy mazhabchilik va kamsitish harakatlariga yo‘l qo‘ymaydi.

Bosh vazir, mudofaa vaziri va qurolli kuchlar shtab boshlig‘i lavozimlarini saqlab qolgan Qobusdan farqli o‘laroq, Xaytham bir nechta vazirlik portfellaridan (tashqi ishlar va moliya) voz kechdi va endi mamlakat markaziy bankining rahbari emas. Biroq u bir vaqtning o‘zida yaqin qarindoshlarini muhim lavozimlarga tayinlagan. Uning to‘liq akasi Shihob bosh vazirning mudofaa masalalari bo‘yicha o‘rnbosari, o‘g‘li Heyazin esa madaniyat, sport va yoshlar vaziri va ma’muriyatda uchinchi eng yuqori lavozimli a’zo bo‘ldi. 2021-yil yanvar oyida hukmdor sifatidagi birinchi yilligida Sulton Xaytham amaldagi Asosiy Qonunni bekor qildi va avvalgi tahrirga deyarli o‘xshash yangi qonunni e’lon qildi. Yangi qonun davlatning paternalistik kontseptsiyasini tasdiqlaydi, bunda sulton rahbarlik qiladi. Sulton qonunlarni e’lon qilish va tasdiqlash va uning buyruqlariga bo‘ysunishni talab qilish huquqiga ega. Yangi qonunga sezilarli qo‘srimchalar toj knyazlik lavozimini belgilash (Konstitusianing 7-moddasi) va erkak primogeniture institutsionalizatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, Heyazin otasining o‘rnini egallashini ta’minlaydi.[6]

Hozirgi davlat boshqaruvi tuzilishiga ko‘ra Sultonlik hukumat tizimi to‘rt asosiy organlardan iborat:

Birinchi, Monarx, ya’ni Sulton – davlat va hukumat boshlig‘i, qurolli kuchlar qo‘mondoni.

Ikkinci, Vazirlar Kengashi – ijroiya hokimiyat organi, bosh vazir (odatda Sulton o‘zi) boshchiligidagi ishlaydi.

Uchinchi, Maslahat Kengashi (Majlis al-Shura) – 86 a’zodan iborat, cheklangan qonun chiqaruvchi vakolatga ega.

To‘rtinchi, Davlat Kengashi (Majlis al-Dawla) – 83 a’zodan iborat, Sulton tomonidan tayinlanadi.[5]

2021-yil yanvar oyi o‘rtalarida e’lon qilingan yangi Ummon Qonuni Kengashi saylangan quyi palata (Majlis al-Sho‘ro) va sulton tomonidan to‘liq tayinlanadigan yuqori organdan (Majlis al-Davla) tashkil topgan ikki palatali institutning asosan maslahatchi rolini yanada cheklaydi. Ichki xavfsizlik va fuqarolik erkinliklari bilan bog‘liq siyosat nuqtai nazaridan Sulton Haysam o‘zidan oldingi rahbar bilan mustahkam davomiylikni namoyish etdi. Bugungi kunda Ummon parlamenti ikki qismdan iborat: davlat kengashi va sho‘ro kengashi. Davlat kengashi a’zolari sulton tomonidan tayinlansa, sho‘ro kengashi a’zolari xalq tomonidan saylanadi. Ummonda siyosiy partiylar mavjud emasligi sababli, saylovda qatnashmoqchi bo‘lgan har bir nomzod o‘z targ‘ibotini olib boradi.

Qayd etish lozimki, davlat boshqaruvida to‘rt organ mukammal tarzda ishlashi muhim hisoblanib, biroq, asosiy vakolat va siyosiy mas’uliyat Sulton hokimiyatiga yuklatiladi. Sultonlik ijtimoiy-siyosiy hayoti bir tizimga solinganligi uchun uning barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishi bugungi kunda ijobiy natijalarga erishmoqda. Xususan, arab davlatlari ichida kuchli uchtalik, dunyo bo‘yicha kuchli 30 talik ichida mavjudligi uning bugungi holatini tushinish uchun yordam beradi.

Darhaqiqat, 1970-2020-yillarda Sulton Qobus davrida Ummon mintaqadagi eng barqaror davlatlardan biriga aylandi. Albatta bunga Neftdan tashqari iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishni maqsad qilgan, “Vision Oman-2040” strategiyasidagi marralarga erishish. Shuningdek, tashqi siyosatda diplomatik neytralitet – Eron, Saudiya Arabiston va AQSh bilan munosabatlarda oltin muvozanatni saqlash. Qolaversa, mamlakatda ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish orqali aholining savodxonlik darajasi 94% dan yuqori natijasiga erisha olish kabi bir qator omillar sabab qilib ko‘rsata olishimiz mumkin.[6]

Hozirgi davrda har bir davlat o‘z rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda tabiiy resurslar, demografik holat va global jarayonlarni hisobga oladi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, barqaror iqtisodiyot ijtimoiy muammolarni hal qilish va mustaqillikni mustahkamlash uchun asosdir.[7] Mamlakat hozirgi kunda rivojlanishning yuqori natijalariga ildamlamoqda. Sulton Haytham ibn Tariq hukumatga kelganidan keyingi davrida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Covid2019 pandemiyasi butun jahon iqtissodiy inqiroz holati va neft narxlarining pasayishi vaziyatida sultonlik byudjet taqchilligini kamaytirishga erishish uchun iqtisodiyotni deversifikasiya qilish bo‘yicha qaror qabul qildi. Shuningdek, viloyatlarning iqtisodiy avtonomiyasini oshirish maqsadida mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishni rivojlantirishga erishish. Bundan tashqari, 2021-yilda ayollarga davlat

idoralarida yuqori lavozimlarni egallash imkoniyati berildi va bu orqali ichki siyosiy boshqaruvda ayollar huquqlarini kengaytirishga erishihs maqsad qilinadi.

Davlatlarning rivojlanish yo‘lidagi bosib o‘tgan yo‘lida qator muammaolar uchrashi tabiiy holat xisoblanib, Ummon Sultonligida ham bu kabi muammaolar talaygina uchraydi. Xususan, mamlakat yoshlarining ishsizlik ko‘rsatkichi 15-24 yoshdagilar hisobga olinganda 20% tashkil etmoqda. Bu kelajakda ko‘plab muammalarni keltirib chiqaradi. Iqtisodda neftga qaramlik mamlakatning hozir ham YaIMning 40% neft va gazdan keladi. Darhaqiqat, bugungi kunda Ummon neft va gaz resurslariga tayanib, rivojlangan iqtisodiyotga ega. Biroq, neft zahiralari cheklanganligi sababli (5,4 mlrd barrel), mamlakat diversifikatsiyaga e’tibor qaratmoqda.[8] Ayniqsa, quyosh energiyasi, baliqchilik va gidroenergetika kabi sohalarni rivojlantirish ustida ish olib borilmoqda.

XULOSA

Ummon Sultonligi o‘zining barqaror siyosiy tizimi, strategik geografik joylashuvi va ehtiyyotkor islohotlari bilan Fors ko‘rfazidagi muhim o‘rinni egallaydi. Biroq, neftga qaramlik, demografik bosim va global iqtisodiy o‘zgarishlar kelajakda jiddiy sinovlar tug‘dirishi mumkin. Ummon neft narxlarining pasayishi va COVID-19 pandemiyasiga qaramay, “Vision Oman 2040” strategiyasi orqali barqaror iqtisodiyotni shakllantirishga va Ummonni 2040-yilga borib dunyoning eng yaxshi 10 davlati qatoriga kiritishni maqsad qilishga intilmoqda. Mamlakat xorijiy investitsiyalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratib, kelajakda mintaqaviy yetakchilardan biriga aylanishni maqsad qilgan ushbu strategiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, mamlakat mintaqaviy yetakchilardan biriga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Valeri, J. "Oman: Politics and Society in the Qaboos State" – Sulton Qobus davridagi siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar haqida. (2019).
2. Peterson, J.E. "Oman’s Insurgencies: The Sultanate’s Struggle for Supremacy" – Ummonning ichki va tashqi siyosiy xavflarga qarshi kurashi. (2016).
3. Al-Rasheed, M. "The Son King: Reform and Repression in Saudi Arabia and Oman" – Fors ko‘rfazi monarxiyalarining modernizatsiyasi. (2021).
4. Uzi Rabi, "Oman Under Qaboos: The Emergence of a New Diplomatic Style in the Gulf", Andrzej Kapiszewski ve diğerleri, Modern Oman içinde (99-116), Krakow: Ksiegnaria Akademicka , 2006, s. 180
5. Николаевна Л.Р. Оман: состояние и перспективы экономики и внешнеэкономических связей. // Российский внешнеэкономический вестник

- 5 – 2021, c. 36-49. <https://cyberleninka.ru/article/n/oman-sostoyanie-i-perspektivy-ekonomiki-i-vneshneekonomiceskikh-svyazey>
6. Кириченко В.П. Султан Кабус и модернизация Омана.// DOI: 10.31249/rimm/2020.03.07
7. Ian Skeet Oman: Politics and Development. – Machmillan, 1992. – Р. 101.
8. Ummon Konstitutsiyasi. <https://faolex.fao.org/docs/pdf/oma128757E.pdf>
9. “Vision Oman 2040” strategiyasi, (Rasmiy hujjat, 2020). Руденко Л.Н. Оман: состояние и перспективы экономики и внешнеэкономических связей
- 10.A. Gary Grappo, In The Shadow of Qaboos:Contemplating Leadership Change in Oman, Washington: Arab Gulf States Institute, 2015, s. 6
- 11.Vision Oman 2040. UN ESCWA. 2020 <https://andp.unescwa.org/node/2020>
- 12.Sultan Qaboos of Oman, Arab world's longest-serving ruler, dies aged. <https://www.bbc.com/news/world-middle-east-50902476>
- 13.Аль-Балуши А.А. Султан Омана Кабус Бин Саид: политик и дипломат //Вестник РУДН, серия Международные отношения. 2012. № 1. С. 107.
- 14.Пьяных Д. Маленький султанат большой политики: как Кабус бен Саид сделал Оман преуспевающей страной // <https://tass.ru/opinions/7503671>
- 15.BMT va Jahon banki hisobotlari. (2023).
- 16.BMT Inson taraqqiyoti hisoboti (2023).